




# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2023-YIL YANVAR-SENTABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 74 228-30-42**  
**[www.andstat.uz](http://www.andstat.uz)**


## Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 48 429,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,1 % ni tashkil etdi.

Yanvar-sentabr  
mlrd. so'm



Yanvar-sentabr  
FHI, %da



Andijon sh.	6 697,5	103,4
Xonobod sh.	2 003,0	102,8
Oltinko'l	908,8	105,5
Andijon	957,8	108,2
Baliqchi	1 316,6	103,6
Bo'ston	345,0	104,5
Buloqboshi	344,4	104,8
Jalaquduq	1 034,3	105,7
Izboskan	886,6	102,3
Ulug'nor	362,5	108,0
Qo'rg'ontepa	1 841,9	103,2
Asaka	27 380,8	104,0
Marhamat	593,3	105,3
Shahrixon	1 221,0	104,5
Paxtaobod	803,6	102,2
Xo'jaobod	1 732,7	102,1


mlrd. so'm

FHI, %da


## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 78 174,0 ming so'm, Xonobod shahrida 44 182,3 ming so'm, Xo'jaobod tumanida 14 659,5 ming so'm hamda Andijon shahrida 14 164,3 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yanvar-sentabr  
ming so'm



Yanvar-sentabr  
o'sish sur'ati, % da



Andijon sh.	14 164,3	101,1
Xonobod sh.	44 182,3	100,6
Oltinko'l	4 777,4	103,3
Andijon	3 393,2	105,9
Baliqchi	6 181,2	101,4
Bo'ston	4 490,1	102,4
Buloqbooshi	2 279,4	102,7
Jalaquduq	5 261,1	103,7
Izboskan	3 516,1	100,3
Ulug'nor	5 724,8	106,2
Qo'rg'ontepa	8 091,0	101,4
Asaka	78 174,0	104,7
Marhamat	3 226,6	103,2
Shahrixon	3 817,0	102,1
Paxtaobod	2 378,3	100,2
Xo'jaobod	14 659,5	99,5

yillar 2021 2022 2023

ming so'm

o'sish sur'ati, % da

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **47 468,6** mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **98,0 %** ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (56,5 %), Andijon shahri (13,8 %), Xonobod shahri (4,1 %), Qo'rg'ontepa (3,8 %) hamda Xo'jaobod tuman (3,6 %)lari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Andijon (108,2 %), Ulug'nor (108,0 %) hamda Asaka (107,0 %) tumanlarida kuzatildi.

FHI, % da



Ulushi, % da





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **555,8** mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,1 %** ini tashkil etdi.



### Yanvar-sentabr

2022-y. 168,9 mlrd. soʻm

2023-y. 555,8 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2022-y. 76,9%

2023-y. 131,3%

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **47 468,6** mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **98,0 %** ini tashkil etdi.

### Yanvar-sentabr

2022-y. 35 070,5 mlrd. soʻm

2023-y. 47 468,6 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2022-y. 125,6 %

2023-y. 107,2 %



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Yengil avtomobillar		Yumshoq bug'doy va spelta uni		Aroq	
2023	115,0	2023	30,6	2023	0
2022	168,7	2022	93,7	2022	89,2
2021	56,3	2021	88,8	2021	80,7
Paxtadan yigirilgan ip		Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar		Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim	
2023	108,6	2023	195,5	2023	38,2
2022	70,4	2022	144,6	2022	44,5
2021	148,9	2021	93,0	2021	3,8
Neft		80% dan kam bo'lmagan etil spirti		Uzum vinosi	
2023	96,5	2023	84,6	2023	0
2022	111,2	2022	101,7	2022	36,1
2021	163,2	2021	91,4	2021	69,5
O'simlik yog'i (tozalanmagan)		Paxta chigiti		Paxta tolasi	
2023	0	2023	52,6	2023	104,4
2022	39,2	2022	34,1	2022	133,5
2021	172,2	2021	91,7	2021	54,0

2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 187 809,0 dona yengil avtomobil (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 15,0 % ga oshgan), 29,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (60,4 % kamaygan), paxtadan yigirilgan ip mahsulotlari (8,6% ga oshgan) ishlab chiqarildi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan) - dona	187 809,0	163284,0	24525,0
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	7234,0	6658,8	575,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	29635,0	96839,7	-67204,7
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna	276,2	141,3	134,9

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi 64,5 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi 10,7 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,6 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi 8,6 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6%), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,9 % (2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 86,7 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,12 % ni (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 69,0 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida – 68,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,4 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida – 2,6 %) va quyi texnologiyalisi – 28,5 % (2022-yilning yanvar-iyul oylarida - 28,5 %)ni tashkil etdi.




## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 48,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 42,1 % ni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 65,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,2 % ni tashkil etdi. Oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 21,8 % ni tashkil etgan.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,7 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 474,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,6 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1 912,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 86,0 % ni tashkil etgan.




### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va asbob-uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 272,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida mashina va asbob-uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 90,1 % ni tashkil etgan.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,0 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 5 482,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 110,8 % ni tashkil etgan.




### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 64,5 %, fizik hajm indeksi 8,1 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 31 258,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 62,7 % ni fizik hajm indeksi esa 155,5 % ni tashkil etgan.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 157,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 583,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 94,8 % ni tashkil etgan.


### Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 50,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 296,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 129,1 % ni tashkil etgan.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 116,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 324,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 56,5 % ni tashkil etgan.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash,

## D seksiya

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 296,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6% ini) tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 181,1 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.



### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	570,0	685,5	-115,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,4	6,7	-6,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 108,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	Farqi, +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	78,7	52,7	26,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	13,1	14,0	-1,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 78,7 mlrd. so'm yoki 49,3 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 13,1 mlrd. so'm hajm bajarilgan.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish



Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 33 740,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 69,7 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



### Nooziq-ovqat mahsulotlari

*Jami iste'mol mahsulotlaridagi ulushi, % da*

2022-yil yanvar-sentabr



2023-yil yanvar-sentabr



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 20,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumani (78,1%), Xo'jaobod tumani (4,3%) hamda Andijon shahriga (2,5%) to'g'ri keladi.



## Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 26 339,9 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 78,1 %, Xo'jaobod tumanida 1 443,8 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 4,3 %, shuningdek, Andijon shahrida 852,8 mlrd. so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste'mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

Andijon sh.	852,8	92,3
Xonobod sh.	333,6	110,8
Andijon	517,0	102,6
Asaka	26 339,9	106,7
Baliqchi	223,4	103,2
Buloqboshi	252,4	109,0
Bo'ston	144,9	100,7
Jalaquduq	468,4	98,0
Izboskan	503,2	100,4
Ulug'nor	181,8	107,9
Marhamat	222,4	100,3
Oltinko'l	432,6	121,5
Paxtaobod	463,3	92,5
Xo'jaobod	1443,8	109,3
Shahrixon	675,8	101,6
Qo'rg'ontepa	451,0	112,8

mlrd. so'm

O'sish sur'ati, % da


26 991,1 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-sentabr

33 740,7 mlrd. so'm

2023-yil yanvar-sentabr

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi




2022-yil 159,2%

2023-yil 106,1%

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10 073,7 ming so'm bo'lgani holda, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo'yicha Asaka tumanida 75 202 ming so'mga, Xo'jaobod tumanida 12 215,4 ming so'mga, Xonobod shahrida 7 358,4 ming so'mga, Oltinko'l tumanida esa 3 506,6 ming so'mga to'g'ri keldi.



■ hajmi mlrd. so'mda ■ o'sish sur'ati % da

### Andijon viloyati

8 231,8 ming so'm

2022-yil yanvar-sentabr

10 073,7 ming so'm

2023-yil yanvar-sentabr




2022-yil 156,0 %

2023-yil 103,9 %

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 982,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.


Viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining 100 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushni Shahrixon tumani (86,5%), Andijon tumani (82,2%), Baliqchi tumani (68,7,0%), Ulugʻnor tumani (65,9%) tashkil etdi. Eng past ulushli hududlar Xonobod shahri (33,7%), Andijon shahri (27,4%) va Asaka tumani (1,6%)dir. Ularning sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.





## Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 896 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 544 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 470 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 26,5 %) Andijon shahriga, 619 tasi (10,8%) Andijon tumaniga, 509 tasi (9,0 %) Asaka tumaniga, 409 tasi (7,5%) Xo'jaobod tumaniga, 423 tasi (7,2 %) Shahrixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



*Yangi tashkil etilgan*

*Faoliyat ko'rsatayotgan*

2022-yil

830 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2023-yil

674 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2022-yil

9 798 dona

2023-yil

5 544 dona